

9-sinf O'zbekiston tarixi

10-dars: Buxoro amirligi ustidan Rossiya imperiyasi protektoratining o'rnatilishi.

Darsning maqsadlari:

1. Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarga Samarqand uchun jang, Zirabuloq tepaligida jang, Samarqandda xalq harakatlari, Buxoro amirligining Rossiya vassaliga aylantirilishi, Podsho hukumati tomonidan yangi bosib olingan hududlarda Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlaridan iborat Zarafshon okrugining tuzilishi, 1873 - yildagi shartnoma haqida tushunchalar berish.

Tarixiy davrlar va yillarni ajrata oladi, tarixiy hisobini tushuntira oladi;

Mazkur davrni o'rganish orqali o'quvchilar tarix fanining o'rganilayotgan davriga oid tarixiy atamalar mazmunini, tarixiy shaxslar haqida, tarixiy sanalarda ro'y bergan voqealar haqida ma'lumot bera oladi hamda mazkur davrga oid tarixiy joylarni tarixiy xaritadan ko'rsata oladi, ma'lumot bera oladi.

2. Tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarni yangi bilimlar egallashga va tartib-intizomga doimo rioya etishga yo'naltirish hamda ularda ona Vatanga nisbatan muhabbat tuyg'ularini shakllantirish;

O'quvchilarning ozod va hur yashashga bo'lgan munosabatlarini rivojlantirish;

Jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;

O'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish;

3. Rivojlantiruvchi maqsad:

Mavjud tarix faniga oida axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;

O'quvchilarda umumlashma xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantirish.

O'QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Dars turi:	Yangi bilim beruvchi, bilimlarni shakllantiruvchi
Dars metodi:	"Interfaol metodlar", "Guruhlarda ishlash", Test topshiriqlari
Dars jihozi:	darslik, xarita, ko'rgazmali va didaktik materiallar, proyektor, AKT

DARSNING BLOK CHIZMASI:

No	DARS BOSQICHLARI:	Bajariladigan ish mazmuni	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	Salomlashish, davomatni aniqlash, sinfni darsga tayyorlash, kun tarixi aytiladi	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni takrorlash	Takrorlash, mustahkamlash, yangi mavzu bilan bog'lash	8 daqiqa
3	Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish	Yangi mavzuni tushuntirish	14 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
5	Dars yakuni va baholash	G'olib guruhni aniqlash, rag'batlantirish. Darsning so'ngi xulosasini chiqarish	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	O'qituvchi tomonidan uyga vazifa e'lon qilinadi va keyingi mavzuga tayyorlanib kelish yo'nalishini aytib o'tadi	2 daqiqa



Yangi dars mazmunining tayanch tushunchalari, atamalari, tarixiy sana va nomlar:

Buxoro amirligi, Samarqand va Kattaqo'rg'on, Zirabuloq jangi-1868, Amir Muzaffar-1860-1885, Abdumalik to'ra, Bobobek, Jo'rabek, protektorat, 1873-yil, Rossiya imperatorining siyosiy agentligi- 1885.

DARSNING BOBISHI

I. Tashkiliy qism:

O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e'lon qilish.

O'qituvchi tomonidan bugungi kunda tavallud topgan mashhur shaxslar, yurtimiz va jahon maydonida sodir bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlar, bayramlar haqida **qisqacha** ma'lumot berib o'tiladi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash:

“Guruhlarda ishlash”



O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruh uyga berilgan mavzuga oid atamalardan o'z guruhlariga nom qo'yib olishadi hamda guruhga qo'yilgan nomga qisqacha ta'rif berishadi.

1-topshiriq: Darsning bu qismi quyidagi savollar yozilgan kartochkalar yordamida amalga oshiriladi.

- 1- kartochka:** Turkiston general-gubernatorligi nechanchi yilda tashkil qilindi?
- 2- kartochka:** Turkistonning birinchi general gubernatori kim?
- 3- kartochka:** Turkiston general-gubernatorligi tarkibida dastlab qaysi viloyatlar bo'lgan?
- 4- kartochka:** Turkiston general-gubernatori nima sababdan «yarim podsho» deb yuritilgan?
- 5- kartochka:** Turkiston general-gubernatorligining boshqaruv tizimi haqida gapirib bering.
- 6- kartochka:** Yozuvsiz xaritadan 1867-yilgi Turkiston general-gubernatorligi hududini ko'rsating.

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish:

Bu vazifa quyidagi reja asosida amalga oshiriladi:

- 1. Samarqand uchun jang;**
- 2. Buxoro amirligining Rossiya protektoratiga aylantirilishi;**
- 3. 1873-yildagi shartnoma.**

Samarqand uchun jang



Samarqandning markaziy ko'chasi. XIX asr

Turkiston general-gubernatori fon Kaufman O'rta Osiyoni bosib olishni Buxoro amirligini qo'lga kiritish bilan davom ettirishga qaror qildi. Amirlikning harbiy kuchi Qo'qon xonligi bilan uzluksiz olib borilgan urushlar, ichki nizolar, zamonaviy harbiy texnikada ortda qolishi tufayli zaiflashgan edi. Fon Kaufman Buxoro amirligi chegaralarini puxta o'rganib chiqib, Amir Muzaffarga chegaraning Rossiya mulki foydasiga o'zgartirilgan yangi loyihasini tasdiqlashni taklif qildi. Amir Muzaffar bu shartnomani imzolashdan bosh tortdi. Shunda K. P. Kaufman uni general-gubernatorlik chegaralariga bostirib kirishga tayyorgarlik ko'rishda ayblab, 4 mingdan ziyod qo'shindan iborat harbiy otryad to'plab, 1868-yil aprelda Samarqandni bosib olishga kirishdi. Biroq K. P. Kaufmanning Amir Muzaffar qo'shinini

Samarqandga to'plagan, deb qilgan taxmini o'z tasdig'ini topmadi.

Bu vaqtda Buxoro qo'shinlari Cho'ponota tepaligida o'rtnashib olgan edi. 1868-yil 1-mayda fon Kaufman tepalikka hujum boshladi. Rossiya imperiyasi qo'shinlari amirlik sarbozlarining multiq va to'pdan tinmay o'qqa tutib turganiga qaramasdan, suvdan kechib Cho'ponota tepaligiga ko'tarildi. Natijada sarbozlar chekinishga majbur bo'ldi. Shu bilan amir qo'shinining ilg'or jangovar qismi tor-mor keltirildi. Shundan so'ng Zirabuloq tepaligida ikkinchi jang bo'lib o'tdi. Qanchalik qarshilik ko'rsatmasin, Buxoro amiri qo'shini yana mag'lubiyatga uchradi va podsho qo'shinlari Samarqandga jangsiz kirib bordi. K. P. Kaufman Samarqand bekligini Rossiyaga berish, «harbiy xarajat-larni» to'lash va 1865-yildan buyon Turkiston o'lkasida qo'lga kiritilgan barcha narsalarni Rossiya mulki deb e'tirof etish sharti bilan sulh tuzishni taklif qilib, amir Muzaffarga maktub yo'lladi, ammo amirdan javob bo'lmadi.



Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoda amalga oshirgan harbiy istilochilik yurishlariga nafaqat amirlik va xonliklarning harbiy qo'shinlari, balki mahalliy aholi vakillari ham qattiq qarshilik ko'rsatdi. Masalan, K. P. Kaufmanning Buxoro amirligiga qarshi harbiy yurishlari vaqtida Urgut shahrida mahalliy aholi podsho hukumatining qo'shinlariga qarshi kurash olib bordi. K. P. Kaufman general Abramovni qo'shin bilan Urgutga yuborib, shaharning taslim bo'lishini taklif qildi. Lekin bu taklif mahalliy aholi tomonidan rad etildi. Ikki tomon o'rtasidagi to'qnashuvda mahalliy aholi mardonavor jang olib bordi. Artilleriya to'plaridan otilgan o'qlar boshqa joylardagi kabi Urgutda ham istilochilarning harbiy ustunligini ta'minladi. Buning natijasida shahar qal'asi mustamlakachilar tomonidan egallandi. Podsho hukumati qo'shinlari Urgutdan so'ng kattaqo'rg'on shahrini bosib olishga kirishdi.

Rossiya imperiyasining harbiy yurishlariga qarshi Kitob hokimi Jo'rabek va Shahrizabz hokimi Bobobek boshchiligidagi Samarqandda kurash olib borildi. Bu ikki xalq harakati rahbarlari o'z qo'shinlari bilan 1868-yil 2-iyunda samarqandlik qo'zg'olonchilar bilan birga Rossiya imperiyasi qo'shinlari garnizoni joylashgan qal'aga hujum qilishdi. Qamalda qolgan qo'shin yordam so'rab general-gubernator fon Kaufmaning chopar yuboradi. 6-iyunda yordamchi kuchlar yuborildi. Qal'ani egallash uchun 4-iyundan 7-iyungacha shiddatli janglar davom etdi. Unda ikki tomon ham ko'plab talafot ko'rdi. 8-iyunda qamalda qolganlarga harbiy kuchlar yetib keldi, shundan so'ng xalq himoyachilari Samarqanddan chiqib tog' tomonga chekinishga majbur bo'ladi.

Buxoro amirligining Rossiya protektoratiga aylantirilishi



Bobobek,
Shahrizabz hokimi

Jo'rabek,
Kitob hokimi

Podsho hukumati tomonidan yangi bosib olingan hududlarda Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlaridan iborat Zarafshon okrugi tuzildi. Unga general Abramov boshliq qilib tayinlandi. Zirabuloq jangidan keyin Amir Muzaffar o'z mag'lubiyatini tan olib, fon Kaufmanning Turkiston general-gubernatorligining yangi chegaralari haqidagi taklifini qabul qilishga majbur bo'ldi. Bu bilan Rossiya imperiyasi istilochilik yurishlarining ikkinchi bosqichi yakunlandi.

Fon Kaufman 1868-yil 28-iyunda Samarqandda Amir Muzaffar bilan Buxoro amirligini Rossiya imperiyasining protektoratiga aylantirgan shartnomani imzoladi. Unda amir urush boshlanishida aybdor ekanligi, abadiy do'stlik belgisi sifatida Rossiya qo'shinlarining harbiy xarajatlari uchun 500 ming rubl to'lanishi e'tirof etildi. Shartnomaga ko'ra bosib olingan Toshkentdan Samarqandgacha bo'lgan barcha hudud Xo'jand, O'ratepa, Panjikent, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on shaharlari Rossiya imperiyasi ixtiyoriga o'tdi. Amir o'z ixtiyorida qolgan hudud-

Amir o'z ixtiyorida qolgan hududlarni boshqarishda Turkiston general-gubernatorining ko'rsatmalariga rioya etish majburiyatini oldi. Siyosiy qaramligi uchun tarixchilar tomonidan Buxoro hukmdori vassal deb ham yuritiladi. Rossiya savdogarlariga amirlikda erkin savdo qilishiga sharoit yaratib berish va ularni himoya qilishni o'z zimmasiga oldi. Rossiyalik savdogarlarga savdo agentliklarini ta'sis etishga ruxsat berildi, tovarlardan olinadigan boj umumiy qiymatning 2,5 foizidan oshmasligi belgilanib, ular amirlik hududidan boshqa davlatlarga erkin o'tish huquqini oldi.

Mazkur shartnoma amirlikni tahqirlagan, huquqsizlikka va qashshoqlikka mahkum etgan shannandali shartnoma bo'ldi. Amirning tobelik siyosatidan norozi bo'lgan kuchlar o'z harakatini boshladi. Xalq tomonidan qo'llab-quvvatlangan amir Muzaffarning katta o'g'li Abdumalik to'ra, Jo'rabek va Bobobeklar boshchiligidagi qo'shin Samarqandni ozod qilish uchun kurashlarini davom ettirdi. Ular Amir Muzaffarning taxtdan tushirilganligini va Abdumalik to'ra amir etib tayinlanganini e'lon qildi. Xalq qo'shinlari avval Shahrizabzni, so'ng Qarshi va Karmana shaharlarini o'z qo'llariga olishdi. Turkiston general-gubernatori fon Kaufman tomonidan bu harakatlarning oldini olish va bostirish uchun I. F. Abramov boshchiligidagi qo'shin yuborildi. Zamonaviy qurollar bilan ta'minlanmaganligi sababli janglarda qo'zg'olonchilar egallab olgan hududlardan birin-ketin surib chiqarila boshlandi. Natijada Abdumalik to'ra Xiva xonligi hududiga, undan Afg'onistonga o'tib ketdi. Afg'on amiri Sheraxlon Angliya bilan yaqinlashib kelayotgan urushda Rossiyaga tayanishi-ni rejalashtirgani uchun unga yordam bermadi. Hech qayerdan yordam o'lmagan Abdumalik to'ra Peshovarga ketadi va u yerda 1909-yilda vafot etadi. Shunday qilib, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi istilochilik urushining ikkinchi bosqichi Samarqandning egallanishi va Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi protektoratiga aylanishi bilan yakunlandi.

1873-yildagi shartnoma



Buxoro amirligining saroyi (Kogon)

Buxoro bilan Rossiya imperiyasi 1873-yilda amirlikka o'z vakilini tayinlash huquqini beruvchi yangi shartnomani imzoladi. Bu vakilning roziligisiz amirlik biror-bir ichki barcha tashqi siyosiy inasalani lial qila olmaydigan bo'ldi. Shartnomaning 14-moddasida: «Rossiya hukumatidan ijozat bo'lmagan, kim bo'lishidan qat'i nazar, har xil kimsalarni Buxoro hukumati qabul qilmaydi», deb ko'rsatilgan. Shartnomaga muvofiq har kuni ertalab qo'shbegi vakildan kerakli ko'rsatmalarni olib amirga yetkazishi shart bo'lgan. Amir esa bu hujjatlarni rasman tasdiqlagan, xolos. P. Lessar Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi birinchi vakili etib tayinlandi.

Vakilni Buxoroning amaldagi norasmiy gubernatori deb hisoblash mumkin edi. U Buxorodan 15 km uzoqda joylashgan Kogon shahrini qarorgoh qildi. Bu bilan podsho hukumati Buxoroni to'liq imperiya tarkibiga qo'shib olmasdan, mamlakatni amir va uning amaldorlari orqali boshqarishni afzal ko'rdi. Natijada podsho hukumati Buxoro amirini o'z ta'sir doirasiga kiritib, undan o'z manfaatlarini yo'lida foydalandi.

1869-1870-yillarda Rossiya imperiyasi Tashqi ishlar vazirligi Angliya bilan Afg'oniston va O'rta Osiyodagi chegaralarni belgilash to'g'risida muzokaralar olib bordi. Natijada chegaralar Amudaryo bo'ylab Panj tumanidan o'tkazilishiga kelishildi. Buxoro amirligi va Eron o'rtasidagi chegara 1881-yil 10-dekabrda Eron shohi bilan Tehrondagi



Rossiya elchisi imzolagan maxfiy shartnomada belgilandi. 1885-1887-yildagi muzokaralar natijasida chegaralarni belgilash bo'yicha ingliz-rus komissiyasi Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi Buxoro amirligi yerlari bilan Afg'oniston o'rtasidagi chegara chizig'ini belgilashni nihoyasiga yetkazdi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Darsning bu bosqichida quyidagi test topshiriqlari bajariladi (bunda 5 ta ochiq va 2 ta yopiq test beriladi).

TEST SAVOLLARI

1. General Kaufman Urgut aholisi huzuriga taslim bo'lish taklifi bilan kimni yuborgan edi?

A) Romanovskiyni B) Abramovni * C) Krijanovskiyni D) Chernyayevni

2. 1868-yil Zarafshon okrugi tashkil qilingan bo'lib, okrug boshlig'i qilib kim tayinlangan edi?

A) K.P.Kaufman B) M.Chernyayev C) Romanovskiyy D) A.K.Abramov *

3. Abdumalik to'ra nima sababdan afg'on hukmdoridan yordam ololmaydi?

A) Afg'on amiri Amir Muzaffar bilan nizo kelib chiqishini xohlamagan

B) Sheralixon inglizlar bilan bo'lajak to'qnashuvda Rossiyadan yordam olishga umidvor edi*

C) Afg'on amiri Sheralixon bu paytda Eron bilan bo'lajak urushga tayyorgarlik ko'rayotgan edi

D) Afg'on hukmdorining yordam berishga imkoniyati yetmas edi

4. Zirabuloq jangida mag'lubiyatga uchragan Buxoro amirligi Rossiyaga qancha miqdorda tovon to'lash majburiyatini oldi?

A) 500 ming rubl * B) 2,2 mln rubl C) 600 ming rubl D) 1,5 mln rubl

5. Quyidagilar ichida Shahrizabz hokimini aniqlang?

A) Bobobek* B) Jo'rabek C) Abdumalik to'ra D) Olloyorbek

6. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga bosqinining ikkinchi davri nechanchi yillarni o'z ichiga oladi? _____ Javob: (1865-1868-yillar)

7. Buxoro amiri Muzaffarning katta o'g'lining nomi... _____ Javob: (Abdumalik to'ra)


O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

V. Dars yakunlarini chiqarish:



Yakunlarni chiqaramiz!

- ▶ 1868-yil Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining protektoratiga aylandi.
- ▶ Zarafshon vohasi Rossiya hududiga qarashli Turkiston general-gubernatorligiga qo'shib olindi.
- ▶ Abdumalik to'ra, Jo'rabek va Bobobeklar rahbarligidagi xalq harakatlari.



O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish;
Baholarni e'lon qilish.

O'quvchilar aytib o'tgan fikrlari to'planib tahlil va xulosa qilinadi va darsning eng so'nggi xulosasi chiqariladi

VI. Uyga vazifa:



Mavzu yuzasidan darslikda berilgan savollarga javob topish.

Krossvord tuzib kelish

Kelgusi darsda o'tiladigan mavzu bilan tanishib kelish, asosiy tushunchalarni eslab qolish, qo'shimcha manbalarni izlab topish.



Kelgusi yilda o'zgartirish kiritilsa yoki internetdan olingan yangiliklar bo'lsa yoziladi:

